

**MAKTABGACHA TA'LIM TAYYORLOV GURUHLARIDA
INTEGRATSIYALASHGAN MASHG'ULOTLARNI
TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI**

Parmanova Mahzuna Aliqul qizi

Guliston davlat universiteti 2-bosqich magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada integratsiyalashgan ta'lismi, ta'lismi jarayonini tashkil qilishda integratsiyadan foydalanish, ta'lismi sifatini oshirishda integratsiyalashgan ta'larning didaktik tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlari nazariy asoslangan. Maktabgacha ta'lismi tayyorlov guruhilarida integratsiyalashgan mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasining shakl va vositalari metodlari samarali usullari o'z aksini topgan.

Абстрактный. В данной статье теоретически обосновываются уникальные характеристики дидактических принципов интегрированного обучения, использование интеграции в организации образовательного процесса, повышение качества образования. Формы и средства, методы и эффективные приемы технологии организации интегрированных занятий нашли свое отражение в дошкольных подготовительных группах.

Abstract. The politicized education in the loading of integration in the organization of the educational process, the didactic productions of integrated education in creating the quality of education have their own characteristics. Forms and methods of organizing integrated classes of pre-school preparatory group are reflected in effective methods.

Kalit so'zlar: Integratsiya, tamoyil, integrativ mashg'ulotlar, zamomnaviy ta'lismi, metodlar, amaliy mashqlar, rivojlanish.

Ключевые слова: Интеграция, принцип, интегративное обучение, современное образование, методы, практические занятия, развитие.

Key words: Integration, principle, integrative training, modern education, methods, practical exercises, development.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lismi-tarbiya jarayoniga samarali ta'lismi va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'larning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Dunyoda integrativ ta'larning rivojlanishi ijtimoy hamda axborot kommunikatsiya sohalarining o'zaro tizimli aloqadorligi, ilm-fanning istalgan yo'nalishida kuzatilayotgan integrativ jarayonlarning barchasi jamiyatning zamonaviy ta'limi oldiga qo'ygan talablarini qondirishga qaratilgan o'quv-tarbiya jarayoning samarasini ta'minlashning ustuvor

strategiyasini belgilaydi. Maktabgacha ta'limdagi zamonaviy talablar tarbiyalanuvchining shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining mazmuni va tashkil etilishi to'g'risidagi yangi tushunchani belgilaydi. Yangi model pedagoglar bolaning rivojlanishini hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir yosh guruhlari uchun ta'lim dasturlarini tuzishga imkon beradi. Shunindek so'nggi yillarda YUNISEF bilan hamkorlikda yaratilgan "Bolalik akademiyasi" platformasi bilimlarni integratsiyalash nazariyasiga muvofiq ishlab chiqilgan. Bu esa ta'lim tizimi oldida bo'lg'usi tarbiyachilar tafakkurini rivojlantirish, ularni nazariy metodik faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning ilmiy amaliy imkoniyatini belgilab beradi.


Didaktik jarayonning integratsiyalashuvi nafaqat nazariy va metodik o'quv jarayonni bir butun sifatida amalga oshirishni, balki jarayonning samarali olib borilishini ham ta'minlaydi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim jarayonining serqirra va o'ziga xosligini inobatga olgan holda, bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda ta'limiy faoliyatlarni integratsiyalash nazariy-metodik tayyorgarlik jarayonining samarali kechishini ta'minlaydi. Turli faoliyatlar elementlarini yaxlit holda birlashtiruvchi hamda o'ziga xos o'rganish predmetini o'z ichiga olgan holda faoliyatlarni xususiyatlariga ko'ra bog'lovchi mashg'ulotlarlar integratsiyalashgan kurslarning mazmunini anglatadi. **Tadqiqot jarayonida biz** maktabgacha ta'limning ta'lim makonida integratsiya tamoyilidan foydalanishning pedagogik qonuniyatlarini aniqladik. Integratsiya tamoyilini amalga oshirish yaxlit jarayonni tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Yaxlitlik ta'lim jarayonining turli elementlarini birlashtirgan holda sintez orqali yaratiladi. Bolalar bog'chasi yaxlit bir butunga, masalan: bolalar faoliyatining har xil turlari (birgalikda va mustaqil; to'g'ridan-to'g'ri ta'lim faoliyati va bolalarning rejali faoliyati), turli xil o'zaro ta'sir turlari (bola-tarbiyachi, bola-bola, tarbiyachi-bola-ota-ona), turli ta'lim yo'nalishlari va har bir maktabgacha yoshdagi bola uchun yagona rivojlanish yo'nalishini ta'minlash (jismoniy rivojlanish, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish, badiiy va estetik rivojlanish, kognitiv va nutqni rivojlantirish) kabilar. Ta'lim sohalarining integratsiyalashuvi jarayonida kognitiv-nutq, badiiy-estetik, jismoniy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish amalga oshiriladi.

Kognitiv nutqni rivojlantirish deganda biz bolaning atrofidagi dunyoni bilish qadriyatlariga turli yo'llar bilan harakat qilishning maqsadli jarayonini va uning dunyosining boshqa dunyo bilan uyg'un o'zaro ta'sirida uning individualligini o'z-o'zini tasdiqlashini tushunamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolaning badiiy-estetik rivojlanishi bolaning o'ziga xos his-tuyg'ulari va hissiyotlari dunyosini yaratish va yangilashga qaratilgan, "men" qiyofasini ochish, o'zini o'zi ifoda etish, o'zini o'zi targ'ib qilishga qaratilgan maqsadli ta'lim jarayoni sifatida talqin etiladi. Faoliyatning o'ziga xos ijodiy mahsuli bolaning ijodiy rivojlanishi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy rivojlanishi - bu epchillik, iroda, jismoniy faoliyat bilan shug'ullanishi, muvozanat saqlay olishi, yugura olishi, sakrashi, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga ko'tarila olishi kabi harakatlar majmuidir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi - bu bolaning jamiyatga uzlucksiz va tizimli ravishda ijtimoiy nazorat ostida kirishining maqsadli jarayoni, katta yoshdagi shaxsning bevosita ishtirokida ijtimoiy normalar va madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Buning asosida insonning o'zini o'zi bilishi va o'zini o'zgartirishi ontogenezning dastlabki bosqichida sodir bo'ladi. Ushbu rivojlanish yo'nalishlari o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ular maktabgacha yoshdagi bolalarning kattalar tomonidan doimiy nazorat ostida ular bilan hamrohligi natijasida paydo bòladi. Rivojlanishning ushbu yo'nalishlarining sintezi rivojlanishning quyi bosqichidan yuqori bosqichga o'tishni ta'minlaydi, bolaning atrofdagi dunyoni bilishida, shaxsiy va ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda yangi sifat jihatdan rivojlanishini belgilaydi.



Faoliyarlararo integratsiya – bunda ikki yoki undan ortiq asosiy faoliyatlarning g'oyalari, nazariya va tushunchalari birlashtiriladi, integratsiyali rejalashtirish orqali amalga oshiriladi;

-yondosh faoliyatlarning integratsiyasi – o'zaro yaqin aloqada bo'lgan faoliyatlarni integratsiyalash asosida yangi faoliyat turlarini vujudga keltirish. Buning asosida yangicha mashg'ulotlar jamlanmasi vujudga keladi;

-fundamental faoliyatlarning integratsiyasi – zamonaviy bilimlarning barcha tarmoqlari uchun asos bo’luvchi faoliyatlar va ushbu faoliyatlarga tegishli bo’lgan umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalarni integratsiyalash;

-yaxlit bir butun tizim bo’lgan kompleks ob’ektlarni o’rganish. Bunda “koinot”, “jamiyat”, “inson”, “muhit”, “tabiat” kabilarga oid bilimlar integratsiyalashtirib o’rganiladi;

Maktabgacha ta’lim tayyorlov guruhi larida integratsiyalashgan mashg’ulotlarni tashkil etish texnologiyasining dolzarb muammolari so’nggi yillarda xalqaro, mintaqaviy va respublika miqiyosida o’tkazilgan qator ilmiy-amaliy anjumanlarda ham muhokama qilib kelinmoqda. O’zbek auditoriyasida integratsiyalashgan ta’limga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O’zbekiston Respublikasining Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida» gi PQ-2707-son qarori. - «O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami», 2017 yil 9 yanvar, 1-son, 11-modda.
2. Mirziyoyev.Sh Tanqidiy tahlil, qat’iy tahlil va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. «O’zbekiston », 2017. 3.
3. Maktabgacha ta’limga qo’yiladigan davlat talablari. - T. 2017. 4.
4. Mavlonova.R, Raxmonqulova.N. Boshlang`ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. –Toshkent. “O’qituvchi” 2006.-87 b.
- 5 .Soatov.A.J. Bo’lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko’nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O’quv qo’llanma. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2021.-84-93.b.